

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TURLARI VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Shodiyeva Durdonaxon Otabek qizi

**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi 3- bosqich talabasi**

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogik texnologiyalar tushunchasi, ularning asosiy turlari hamda ta'lim jarayonidagi o'рни tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi va qo'llanilish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, innovatsiya, ta'lim jarayoni, AKT, muammoli ta'lim, modulli o'qitish

Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy ravishda rivojlanib borayotgan bo'lib, unda pedagogik texnologiyalarning o'рни beqiyosdir. Pedagogik texnologiya — bu o'qitish jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va natijani kafolatlashga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish uchun turli pedagogik texnologiyalar keng tarqalgan.

Pedagogik texnologiya o'qitishning aniq maqsadlariga erishish uchun qo'llaniladigan usul, vosita va shakllar majmuasidir. U nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu texnologiyada o'qituvchi asosiy rol ni bajaradi. Dars jarayonida ma'ruza, tushuntirish va savol-javob metodlari qo'llaniladi. O'quvchi esa ko'proq tinglovchi sifatida ishtirok etadi.

Interfaol texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Baliq skeleti” kabi metodlar orqali o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga o'rganadi. Bu yondashuv ta'lim samaradorligini sezilarli oshiradi.

AKT asosidagi ta'lim kompyuter, internet va multimedia vositalari yordamida amalga oshiriladi. Masofaviy ta'lim, elektron darsliklar va onlayn platformalar bu turga kiradi. Bu texnologiya ta'limni zamonaviy va qulay qiladi.

Bu usulda o'quvchilarga muammo qo'yilib, uni mustaqil hal qilish talab etiladi. Natijada ularning mantiqiy fikrlashi va tadqiqotchilik qobiliyati rivojlanadi.

Ta'lim jarayoni modul (bo'lim)larga ajratiladi. Har bir modul yakunida nazorat o'tkazilib, bilimlar mustahkamlanadi.

Bu texnologiyada har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlari hisobga olinadi. Differensial yondashuv muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar muayyan loyiha ustida ishlaydi. Bu usul amaliy bilim olish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Didaktik o'yinlar orqali o'qitish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyaning darajalari, tuzilishi va nazariy asoslari

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi, ya'ni darajalari quyidagicha belgilanadi: umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul).

1. Umumiy pedagogik daraja. Umumiy pedagogik (umumdidaktik, 12umumtarbiyaviy) texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlit tizimliliigi, ma'lum bir region, o'quv yurti tomonidan uzliksiz ta'lim tizimining muayyan bir bosqichidagi texnologiyaning umumiy qo'nuniyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari, amaliyotda qo'llashning umumiy

xususiyatlari, shart-sharoitlarini ifodalaydi. Shu o`rinda qayd etish kerakki, uzliksiz ta`lim tizimining har bir bosqichida ta`lim mazmuni orqali tegishli o`ziga xos maqsad va vazifalarni

amalga oshirish ko`zda tutilganligi sababli, pedagogik texnologiya ham o`ziga xos xususiyatga ega bo`ladi. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga sinonim xisoblanadi. Uning tarkibiga ta`lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifasi, mazmuni, vosita va metodlari, tarbiya jarayonining ob`ekti va sub`ekti faoliyatining algoritmlari kiradi.

2. Xususiy metodik darajada pedagogik texnologiyaning muayyan bir predmet, kursni o`qitish jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan ta`lim mazmuni, o`qitish vositalari, metodlari, shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta`lim-tarbiya jarayonining ma`lum bir qismining xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratidgan texnologiya tushuniladi. Unda o`quvchilarning mustatsil ishlarini tashkil etish, o`quvchilar bilimni nazorat qilish, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish kabi masalalar ko`zda tutiladi. Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to`ldiradi va taqozo etadi. Biz pedagogik texnologiyani qo`llash haqida so`z yuritishdan avval, pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslariga to`xtalib o`tamiz.

Pedagogik texnologiya bir qancha asoslarga ega. Bulardan eng ahamiyatlilari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigienik, mafkuraviy, huquqiy-me`yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar xisoblanadi. Ular bilan qisqacha tanishib chiqamiz. Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta`lim tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarining falsafiy jihatdan to`g`ri yo`nalishda bo`lishini ta`minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo`nalishlarning har biri ta`lim-tarbiya masalalariga o`ziga xos yondashadi. Shu sababdan pedagogik texnologiyaning falsafiy yo`nalishi uning to`g`ri yoki noto`g`riligini, jamiyatning ma`lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko`rsatadi. Bu pedagogik texnologiyalarga baho berishda asosiy ko`rsatkichlardan hisoblanadi zamonaviy taraqqiyot o`tgan asrning boshlarida jamiyat hayotining barcha sohalarida texnologiyalarning qo`llanilishiga zamin yaratdi. Mazkur holat bilan bog`liq ravishda ta`lim muassasalari, aniqrog`i, oliy o`quv yurtlarida “Pedagogik texnologiya” o`quv fanini o`qitishga bo`lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Ta`lim texnologiyasi o`quv faoliyatini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishga, ulaming pedagog bilan o`zaro hamkorlikda o`quv materiallarini puxta o`zlashtirishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. “Pedagogik texnologiya” o`quv fani ham o`zining texnologik yondashuv, texnologik madaniyat, pedagogik jarayon, loyihalash, pedagogik jarayonni loyihalash, modul, ta`lim maqsadi, tarbiya maqsadi, texnologik tizim, shaxsga yo`naltirilgan ta`lim, pedagogik tashxis, interfaol metod, texnologik pasport, texnologik xarita hamda pedagogik mahorat elementlari kabi asosiy kategoriyalariga ega. Suhbat, anketa, intervyu, pedagogik tahlil, pedagogik kuzatish, modellashtirish, bolalar ijodini o`rganish, test (predmetli va psixologik testlar), ta`lim muassasasi hujjatlarini o`rganish, pedagogik tajriba, ekspert baholash, matematik-statistik tahlil kabi ilmiy-pedagogik metodlar pedagogik texnologiya masalalarini o`rganishga yordam beradi. Barcha o`quv fanlari singari “Pedagogik texnologiya” fani ham Pedagogika nazariyasi, Pedagogika tarixi, Xususiy metodika (xususiy

fanlami o‘qitish), Ta‘lim menejmenti, Kreativ pedagogika, Hamkorlik pedagogikasi, Pedagogik innovatsiya, Falsafa, Etika (Axloqshunoslik), Sotsiologiya hamda Psixologiya fanlari kabi o‘quv fanlari bilan Mo‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikda o‘rganiladi.

Xulosa

Pedagogik texnologiyalar ta‘lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ularning to‘g‘ri tanlanishi va qo‘llanilishi o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, interfaol va innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi va ularni zamonaviy talablar asosida tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Bekjanov Sh., Ahmadov O. Pedagogik texnologiyalarni ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llashning nazariy asoslari. – Modern Science and Research, 2024.
2. Ataboyeva M.A., Nazarov T., Nurmatova I. Pedagogik texnologiya turlari. – Educational Research in Universal Sciences, 2023.
3. Rustamova Sh.A. Matematikani o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning o‘rni. – Uzbek Scholar Journal, 2022.
4. Eshnayeva F.Q. Adabiyot darslarida interfaol metodlarning o‘rni. – Tadqiqotlar jurnali, 2025.
5. Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
6. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
7. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003.
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste‘dod, 2008.